

MARKAZIY OSIYO VA ROSSIYA O‘RTASIDAGI KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI KO‘RIB CHIQLDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-oktabr kuni Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo — Rossiya” formatidagi ikkinchi sammitda ishtirok etdi.



Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon raisligida o‘tgan tadbirda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadiir Japarov va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, ko‘p tomonlama sheriklikni yanada rivojlantirish, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni

kengaytirish masalalari, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlarini ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida Rossiya Prezidenti Vladimir Putinga Markaziy Osiyo bilan keng ko‘lamli strategik sheriklikni rivojlantirish tarafdori bo‘lib kelayotgani uchun minnatdorlik bildirib, uning tabiiy sheriklar bo‘lgan mamlakatlarimiz hamkorligiga yangi sur‘at berishga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlad.

— Rossiya biz uchun muhim, ustuvor strategik sherik va ittifoqchi bo‘lib kelgan, hozir ham shunday va kelgusida ham shunday bo‘lib qolishini ta’kidlayman. Umumiy tarix, ko‘p asrlik aloqalar, xalqlarimizning madaniy va dunyoqarash jihatdan yaqinligi, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stona va ishonchli munosabatlar bunday hamkorlikning mustahkam va o‘zgarmas asosi hisoblanadi, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Jahon iqtisodiyotidagi tobora kuchayib borayotgan geosiyosiy keskinlik va inqirozli holatlar, shuningdek, yuzaga kelayotgan yangi xavf-xatar va tahdidlar “Markaziy Osiyo — Rossiya” formatida yanada yaqin muvofiqlashuv va hamkorlikni taqozo etayotgani qayd etildi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston yetakchisi mintaqada mamlakatlarining Rossiya bilan hamkorligi istiqbollari yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini bayon qildi.

Eng avvalo, tizimli siyosiy muloqotni mustahkamlash va aniq natijaga qaratilgan amaliy hamkorlikni kengaytirish muhim ekani ta’kidlandi.

Shu bois, O‘zbekiston Prezidenti har yili oliy darajadagi uchrashuvlarni, hukumatlar, vazirliklar, idoralar va hududlarning muntazam muloqotlarini o‘tkazish muhimligini ta’kidladi.

2027-yilga qadar qo‘shma harakatlar rejasini qabul qilinishini qo‘llab-quvvatlab, davlatimiz

rahbari amaliy hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan yanada batafsil “yo‘l xaritasi”ni tayyorlashni taklif etdi.

Topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, mintaqaviy ahamiyatga molik dastur va loyihalarni tayyorlash hamda jadallashtirish maqsadida hukumat rahbarlari o‘rinbosarlari darajasida Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish muhimligi qayd etildi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “MARKAZIY OSIYO – ROSSIYA” FORMATIDAGI IKKINCHI SAMMITDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalo, an’anaviy samimiy qabul va uchrashuvimizni yuksak darajada tashkil etgani uchun Tojikiston Respublikasi Prezidenti hurmatli Emomali Sharipovich Rahmon sha’niga bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Biz har safar Tojikistonga tashrif buyuray ekanmiz, Sizning rahbarligingizda ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Ko‘z o‘ngimizda mamlakat qiyofasi tubdan o‘zgarib bormoqda — iqtisodiyot va infratuzilma jadal rivojlanmoqda, eng asosiysi — aholi farovonligi oshib bormoqda.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti hurmatli Vladimir Vladimirovich Putinga Markaziy Osiyo bilan keng ko‘lamli strategik sheriklikni rivojlantirishning qat’iy tarafdori bo‘lib kelayotgani uchun samimiy tashakkur izhor etaman.

Sizning mintaqada bilan ittifoqchilik munosabatlari va ko‘p qirrali hamkorlikni mustahkamlash masalalaridagi doimiy qo‘llab-quvvatlashingiz va shaxsiy e’tiboringizni O‘zbekiston doimo his etib kelishi va qadrlashini alohida qayd etmoqchiman.

Siz ilgari surgan, tabiiy sheriklar bo‘lgan mamlakatlarimizning o‘zaro hamkorligiga yangi sur‘at berishga qaratilgan tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatlayman.

Hurmatli davlat rahbarlari!

Rossiya biz uchun muhim, ustuvor strategik sherik va ittifoqchi bo‘lib kelgan, hozir ham shunday va kelgusida ham shunday bo‘lib qolishini ta’kidlayman.

Umumiy tarix, ko‘pasrlik aloqalar, xalqlarimizning madaniy va dunyoqarash jihatdan yaqinligi, mamlakatlarimiz

o‘rtasidagi do‘stona va ishonchli munosabatlar bunday hamkorlikning mustahkam va o‘zgarmas asosi hisoblanadi. Shu bilan birga, geosiyosiy ziddiyatlar va jahon iqtisodiyotida inqiroz holatlari kuchayib borayotgani, yangi xavf va tahdidlar mintaqada barqarorlikni ta’minlash yo‘lida bizning formatimiz doirasida yanada yaqin muvofiqlashtirish va hamkorlikni talab etmoqda.

Kun tartibidan kelib chiqib, Markaziy Osiyo va Rossiya o‘rtasidagi keng miqyosdagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha o‘z qarashlarimizni aytib o‘tmoqchiman.

Biz ushbu formatda aniq natijaga erishishga yo‘naltirilgan tizimli siyosiy muloqotlarni kuchaytirish va amaliy hamkorlikni kengaytirish muhim, deb hisoblaymiz.

Biz har yili oliy darajadagi uchrashuvlarni, hukumatlar, vazirlik, idora va mintaqalarning muloqotlarini muntazam ravishda o‘tkazib borish tarafdorimiz. Shu munosabat bilan 2027-yilgacha bo‘lgan Qo‘shma harakatlar rejasini qabul qilinishini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Shu bilan birga, hukumatlarimizga amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan kengaytirilgan “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash bo‘yicha topshiriq berishni taklif etamiz.

Topshiriqlarimiz o‘z vaqtida ijro etilayotganini nazorat qilish, mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan dastur va loyihalarni tayyorlash va amalga oshirilishini tezlashtirish uchun hukumat rahbarlari o‘rinbosarlari darajasida Muvofiqlashtiruvchi kengash ta’sis etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Biz mintaqamizning Rossiya bilan iqtisodiy sherikligini tubdan kengaytirishdan manfaatdormiz. Buni birgalikdagi faoliyatimizning asosiy yo‘nalishi, deb hisoblaymiz.

Bozorlarda noqulay konyunktura saqlanib qolayotgan va tashqi ta’sirlar kuchayib borayotgan sharoitda o‘zaro savdo ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘sish sur‘atlarini ta’minlashga erishmoqdamiz. Jumladan, o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha va joriy yilda O‘zbekistonning Rossiya va mintaqada mamlakatlari bilan o‘zaro tovar aylanmasi 15 foizga o‘tdi.

Bu ishlarni davom ettirish va biz taklif etayotgan Kengash doirasida mahsulot ayirboshlash hajmini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu o‘rinda so‘z mahsulot bozorlariga o‘zaro kirishni yengillashtirish, jarayonlarni soddalashtirish, “Markaziy Osiyo — Rossiya agroekspress” loyihasini ishga tushirish haqida bormoqda.

Mamlakatlarimizning tranzit-transport salohiyatidan, birinchi navbatda, Shimol — Janub yo‘lagi doirasida samarali foydalanish hayotiy muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz avtomobil, temir yo‘l va aviatsiya aloqalari sohasida milliy dasturlarni uyg‘unlantirish va shu asosda infratuzilmaviy sheriklikning kompleks rejasini — mamlakatlarimiz Transport-logistika konturini ishlab chiqishni taklif etamiz.

Tashqi xavf-xatarlarga nisbatan barqaror bo‘lgan integratsiyalashgan, o‘zaro bog‘liq mintaqaviy transport infratuzilmasini shakllantirish bizning pirovard maqsadimiz bo‘lishi zarur.

Biz barqaror ishlab chiqarish zanjirlarini yaratish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishni yana bir ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘ramiz.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Rossiyaning yetakchi kompaniyalari bilan sanoat bo‘yicha sheriklikni faol kengaytirmoqda. Shu borada gaz-kimy o‘zaro sohasida yirik strategik sanoat loyihalari amalga oshirilayotgani va zamonaviy mis boyitish xabi yaratilayotganini misol sifatida keltirib o‘tishni istar edim.

Ayni vaqtda mashinasozlik, asbobl ishlab chiqarish, kimyo, elektrotexnika, tog‘-kon va boshqa sohalarida klaster asosida hamkorlikni kengaytirish uchun hali ishga solinmagan ulkan zaxiralar mavjud.

Yetakchi korxonalar va xususiy sektorning innovatsiyaga yo‘naltirilgan kooperatsiyasini rag‘batlantirish uchun Buxoro shahrida “Markaziy Osiyo — Rossiya” sanoat injiniring xabini tashkil etishni taklif qilamiz. Ushbu loyiha ilg‘or muhandislik yechimlarini ishlab chiqish, joriy qilish va ommalashtirish uchun noyob texnologik maydonchaga aylanishiga ishonaman.

Toshkentda o‘tkaziladigan “Innoprom. Markaziy Osiyo” ko‘rgazmali forum imkoniyatlarini yuqori darajada ishga solish muhim ekanini qayd etmoqchiman. Aprel oyida o‘tkazilgan ko‘rgazma 35 mamlakatdan 10 mingdan ortiq ishtirokchilarni birlashtirdi. Besh milliard dollarlik bitimlar imzolandi.

Ushbu tadbirga “Markaziy Osiyo — Rossiya” muloqoti formatidagi asosiy sanoat va innovatsiya maydoni maqomini berishni taklif etamiz.

Davomi 2-betda

IKKI TOMONLAMA ALOQALARNI YANADA MUSTAHKAMLASH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-oktabr kuni amaliy tashrif bilan Tojikiston Respublikasiga keldi.

Dushanbe xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida O‘zbekiston yetakchisi Tojikiston Prezidentini Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga raisligi samarali bo‘lgani bilan samimiy tabrikladi hamda “Markaziy Osiyo — Rossiya” formatidagi bo‘lajak uchrashuv va MDH sammiti muvaffaqiyatli o‘tishini tiladi.

O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

IJTIMOY ADOLATLI JAMIYAT QIYIN VAZIYATDAGI OILALAR TAQDIRINI O‘ZGARTIRAYOTGAN TIZIMGA NAZAR

Har bir insonga o‘z salohiyatini rivojlantirish va ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini oshirish mamlakatimizdagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishidir. Bu borada ijtimoiy himoya tizimidagi yangilanishlarning ahamiyati katta.

So‘nggi yillarda bu jabhadagi ishlar natijasida ijtimoiy himoya tizimi yangi bosqichga olib chiqilib, markazlashgan yagona tizim sifatida shakllantirildi. Tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar

markazlari, har bir mahallada ijtimoiy xodimlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “MARKAZIY OSIYO – ROSSIYA” FORMATIDAGI IKKINCHI SAMMITDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Hurmatli hamkasblar!

Mamlakatlarimizning Rossiya bilan energetika sohasidagi hamkorligi bundan buyon ham mintaqaning tinchligi va barqarorligi omili bo‘lib qoladi. Biz bugun strategik, jumladan, gaz quvurlari va energetika infratuzilmalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshiryapmiz.

Shu kunlarda tarixiy bir voqea bo‘lib o‘tadi — O‘zbekistonda barpo etiladigan atom elektr stansiyasining birinchi reaktori va ko‘ptarmoqli yadro tibbiyoti markazi qurilishi bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga start beriladi.

Ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ilmiy-amaliy hamkorlik o‘rnatishni — O‘zbekistonda atom energetikasi bo‘yicha Mintaqaviy kompetensiyalar markazini ta‘sis etish, shuningdek, Moskva davlat muhandislik-fizika institutining Toshkent filiali bazasida kadrlar tayyorlash dasturini qabul qilishni taklif etamiz.

Bundan tashqari, uglevodorod resurslarini qidirish va qayta ishlash, elektr energetikasi tizimini modernizatsiya qilish, energiyani tejaydigan yechimlarni joriy etish sohasida hamkorlikni kengaytirish niyatidamiz.

Ilg‘or bilim va texnologiyalar transferi, qo‘shma loyihalarni tayyorlash va ilgari surish uchun “Markaziy Osiyo va Rossiya energetik sherikligi” kompleks dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Innovatsiyalar sohasida mamlakatimizda “Skolkovo” markazi filialini ochishni taklif etamiz.

Sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalar bo‘yicha Mintaqaviy ekspert kengashini ta‘sis etishni davrning o‘zi talab etmoqda, deb hisoblaymiz. Ishonchim komil, bunday platforma yetakchi markazlar, tashkilotlar va IT kompaniyalar darajasida sa‘y-harakatlarni birlashtirish va loyihalar bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun imkon yaratadi.

Biz, shuningdek, qo‘shma dasturlarni amalga oshirish yo‘li bilan gumanitar hamkorlikni kengaytirish niyatidamiz. Shu borada etnomadaniyat forumi — Markaziy Osiyo va Rossiya xalqlari madaniyati, san‘ati va ijodiyoti festivalini har yili o‘tkazib borish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

“Kelajak muhandislari” ilmiy-ta‘lim konsorsiumini tashkil etishni taklif qilamiz. Bu muloqot maydoni dual va professional ta‘lim tizimini joriy etish, fundamental ilmiy ishlarni amalga oshirish maqsadida mamlakatlarimizning yetakchi oliygohlari va tadqiqot tuzilmalari salohiyatini birlashtirishga xizmat qiladi.

Rossiya universitetlarining muvaffaqiyatli ishlayotgan filiallari konsorsiumning intellektual bazasi bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda 15 ta ana shunday filiallar faoliyat yuritmoqda.

Bu borada Markaziy Osiyo va Rossiyadagi yosh tadqiqotchilar va olimlar uchun Maxsus grantlar dasturini birgalikda ta‘sis etishimiz mumkin.

Bundan tashqari, onalik va bolalikni muhofaza qilish, mehnat migratsiyasi sohasida ijtimoiy moslashuvga ko‘maklashish dasturlarini qabul qilish, shuningdek, mintaqaviy yo‘nalishlar asosida sayyohlik oqimini kengaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash masalalariga alohida to‘xtalib o‘tishni istar edim.

Terrorizm, ekstremizm, radikalizm, uyushgan jinoyatchilik, odam savdosi va narkotrafiklarga qarshi kurashda maxsus xizmatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yaqin hamkorligini yanada kengaytirish muhim, deb hisoblaymiz.

Yangi kibertahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha birgalikda chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Afg‘oniston bilan hamkorlikni rivojlantirish va ushbu mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirishga ko‘maklashish bo‘yicha yondashuvlarni muvofiqlashtirish maqsadida yuqori darajadagi maslahatlashuvlarni o‘tkazish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishni taklif etamiz. Xavfsizlik sohasida o‘zaro hamkorlik, mazkur mamlakatda barqarorlik va taraqqiyotni ta‘minlashga qaratilgan iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish masalalari ushbu uchrashuvlar kun tartibiga kiritilishi mumkin.

Hurmatli hamkasblar!

So‘zimizning yakunida mamlakatlarimiz xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti va farovonligini ta‘minlash yo‘lida Rossiya bilan ko‘pqirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga sodiq ekanimizni yana bir bor ta‘kidlamoqchiman.

MARKAZIY OSIYO VA ROSSIYA O‘RTASIDAGI KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

Boshlanishi 1-betda

Iqtisodiy sheriklikni tubdan kengaytirish mintaq bilan Rossiya hamkorligining asosiy yo‘nalishi bo‘lishi kerak. O‘zaro savdo ko‘rsatkichlarida ijobiy sur‘at kuzatilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Xususan, o‘tgan yil va joriy yilda O‘zbekistonning Rossiya va mintqa mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 15 foizgacha oshdi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati doirasida tovar ayirboshlash hajmini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish taklif qilindi.

Bozorlarga kirishni o‘zaro yengillashtirish, tartib-taomillarni soddalashtirish, “Markaziy Osiyo — Rossiya agroekspressi” loyihasini ishga tushirish shular jumlasidan.

Davlatimiz rahbari mamlakatlarimiz tranzit-transport salohiyatidan, eng avvalo, “Shimol — Janub” yo‘lagi doirasida samarali foydalanish g‘oyat muhim ekanini ta‘kidladi.

— Biz avtomobil, temir yo‘l va aviatsiya aloqalari sohasida milliy dasturlarni uyg‘unlantirish va shu asosda infratuzilmaviy sheriklikning kompleks rejasini — mamlakatlarimiz Transport-logistika konturini ishlab chiqishni taklif etamiz. Tashqi xavf-xatarlarga nisbatan barqaror bo‘lgan integratsiyalashgan, o‘zaro bog‘liq mintaqaviy transport infratuzilmasini shakllantirish bizning pirovard maqsadimiz bo‘lishi zarur, — dedi Prezident.

Yana bir ustuvor yo‘nalish sifatida barqaror ishlab chiqarish zanjirlarini yaratish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish belgilandi. Shu ma‘noda, bugungi kunda O‘zbekiston Rossiyaning yetakchi kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasini faol kengaytirayotgani, gaz-kimyo tarmog‘ida yirik strategik loyihalar amalga oshirilayotgani, zamonaviy mis boyitish xabi tashkil etilayotgani ta‘kidlandi.

Shu bilan birga, mashinasozlik, aniq asbobsozlik, kimyo, elektrotexnika, tog‘-kon va boshqa tarmoqlarda hamkorlikni klaster asosida kengaytirish uchun ulkan zaxiralarni borligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Yetakchi korxonalar va xususiy sektorning innovatsiyalarga yo‘naltirilgan kooperatsiyasini rag‘batlantirish maqsadida Buxoro shahrida ilg‘or muhandislik yechimlarini ishlab chiqish, joriy etish va ko‘paytirish uchun noyob texnologik maydon bo‘lishi mumkin bo‘lgan “Markaziy Osiyo — Rossiya” sanoat injiniring xabini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi.

Mamlakatimiz yetakchisi Toshkentdagi “Innoprom. Markaziy Osiyo” ko‘rgazma-forumi

imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solish muhimligini ta‘kidladi.

Joriy yil aprel oyida o‘tkazilgan beshinchi ko‘rgazmada 35 mamlakattan 10 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashdi. 5 milliard dollarlik bitimlar tuzildi. Ushbu tadbirga “Markaziy Osiyo — Rossiya” muloqoti formatidagi bosh industrial va innovatsion maydon maqomini berish taklif qilindi.

O‘zbekiston rahbari ta‘kidlaganidek, Rossiya bilan energetika sohasidagi hamkorlik bundan buyon ham mintqa barqarorligining omili bo‘lib qoladi. Bugungi kunda gaz quvurlari va energetika infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha strategik loyihalar amalga oshirilmoqda.

— Shu kunlarda tarixiy bir voqea bo‘lib o‘tadi — O‘zbekistonda barpo etiladigan atom elektr stansiyasining birinchi reaktori va ko‘ptarmoqli yadro tibbiyoti markazi qurilishi bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga start beriladi, — dedi Prezident.

Ushbu yo‘nalishda keng ilmiy-amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish — O‘zbekistonda Atom energetikasi bo‘yicha mintaqaviy kompetensiyalar markazini ta‘sis etish, shuningdek, Moskva muhandislik-fizika institutining Toshkent filiali negizida Kadrlar tayyorlash dasturini qabul qilish taklif qilindi.

Uglevodorodlarni izlash va qayta ishlash, elektr energetikasini modernizatsiya qilish, energiya tejamkor yechimlarni joriy etish borasidagi hamkorlikni kengaytirish niyati bildirildi.

Ilg‘or bilim va texnologiyalar transferi, qo‘shma loyihalarni tayyorlash va ilgari surish maqsadida “Markaziy Osiyo — Rossiya energetika sherikligi” kompleks dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Innovatsiyalar sohasida “Skolkovo” markazining mintqa mamlakatlarida filiallarini ochish taklif etildi.

Shuningdek, yetakchi markazlar, tashkilotlar va IT kompaniyalar darajasida sa‘y-harakatlarni birlashtirish va loyihaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonini beruvchi Sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalar bo‘yicha mintaqaviy ekspert kengashini ta‘sis etish zarurligi qayd etildi.

Gumanitar hamkorlikni kengaytirish maqsadida har yili Etnomadaniyat forumi — Markaziy Osiyo va Rossiya xalqlari madaniyati, san‘ati va ijodi festivalini o‘tkazish tashabbusi ilgari surildi.

Bundan tashqari, dual va professional ta‘lim tizimini joriy etish, fundamental ilmiy ishlarni amalga oshirish uchun yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tuzilmalarining

salohiyatini birlashtirishga qaratilgan “Kelajak muhandislari” ilmiy-ta‘lim konsorsiumini ishga tushirish taklif qilindi. Mintaqa mamlakatlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan Rossiya universitetlarining filiallari Konsorsiumning intellektual bazasi bo‘lishi mumkinligi ta‘kidlandi. O‘zbekistonda ularning soni 15 tani tashkil etadi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo va Rossiyaning yosh tadqiqotchilari hamda olimlari uchun maxsus grant dasturini ta‘sis etish taklif qilindi.

Har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish uchun bolalar va onalar salomatligini muhofaza qilish, mehnat migratsiyasi sohasida ijtimoiy moslashuvga ko‘maklashish, shuningdek, mintaqaviy yo‘nalishlar asosida sayyohlar oqimini kengaytirish bo‘yicha dasturlar qabul qilish dolzarbligi ko‘rsatib o‘tiladi.

O‘zbekiston Prezidenti mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash masalalariga alohida to‘xtaldi.

— Terrorizm, ekstremizm, radikalizm, uyushgan jinoyatchilik, odam savdosi va narkotrafiklarga qarshi kurashda maxsus xizmatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yaqin hamkorligini yanada kengaytirish muhim, deb hisoblaymiz. Yangi kibertahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha birgalikda chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taklif etamiz, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Hamkorlikni kengaytirish va Afg‘onistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko‘maklashish borasidagi yondashuvlarni muvofiqlashtirish maqsadida oliy darajadagi maslahatlashuvlar o‘tkazish imkoniyatini ko‘rib chiqish taklif qilindi. Mazkur uchrashuvlar kun tartibidan xavfsizlik sohasidagi hamkorlik, ushbu mamlakat barqarorligi va taraqqiyotini ta‘minlashga qaratilgan iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish masalalari o‘rin olishi mumkin.

So‘zining yakunida O‘zbekiston Prezidenti mintaqaning barcha mamlakatlari xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti va ravnaqini ta‘minlash yo‘lida Rossiya bilan ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga intilishi qat‘iy ekanini yana bir bor ta‘kidladi.

Sammit davomida boshqa davlatlar rahbarlari ham so‘zga chiqdi.

Tadbir yakunida Qo‘shma kommunikey va ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan Qo‘shma harakatlar rejasini qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

Nuqtayi nazar

YOSHLAR — TARAQQIYOTNING MUSTAHKAM TAYANCHI



Ahmed REYMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar
Akademiyasi Qoraqalpog‘iston
bo‘limi boshlig‘i, akademik

Tez sur‘atda o‘zgarayotgan va rivojlanayotgan dunyoda yosh avlodning bilimli hamda vatanparvar ruhda kamol topishi har bir davlat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biriga aylanmoqda. Shu ma‘noda, yoshlar tarbiyasi nafaqat milliy siyosatning, balki butun insoniyat kelajagining muhim poydevoridir.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasida so‘zlagan nutqida ilgari surilgan g‘oyalarni bu yo‘nalishdagi siyosatning izchil va chuqur mazmun kasb etganini yaqqol namoyon etdi. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘ziga kelayotgan yosh avlod qo‘lida. Yoshlarimiz qalbi va ongiga tinchlik, insonparvarlik va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g‘oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir”.

“Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta‘sis etish tashabbusi ham aynan shunday euzu maqsadlarga xizmat qiladi. Bu g‘oya, avvalo, yoshlarning global hamjihatlik va tinchlik g‘oyasi atrofida birlashishiga zamin yaratadi.



“

“Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”. Buyuk ma‘rifatparvar va ta‘lim-tarbiya fidoyisi Abdulla Avloniyning bu so‘zlari o‘z vaqtida naqadar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

“

Maktab yoshlarda yangi bilimlardan boxabar bo‘lish, yangi sohalarga qiziqish uyg‘otish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, yoshlar maktabda ko‘plab do‘stlar topib, insonlarga ishonch va yordam berish xususiyatlarini shakllantiradi. Shuning uchun maktab tarbiyasini oila tarbiyasidan keyingi muhim bo‘g‘in sifatida qarash mumkin.

O‘tgan vaqt ichida bu g‘oyalarni amaliyotda izchil davomini topib, yoshlar siyosatida yangi bosqichni boshlab berdi.

Demak, yoshlar masalasi mamlakatimizdagi islohotlar markazida turibdi va bu g‘oyaning xalqaro darajada ilgari surilishi O‘zbekistonning yoshlarga oid siyosatini yangi bosqichga ko‘taradi. Prezidentimiz yoshlar tarbiyasiga katta ahamiyat qaratib, ularning kelajagi yurt rivoji uchun asos ekanini har gal ta‘kidlaydi. Barcha mas‘ullarni yoshlar bilan bog‘liq ishlarga hissa qo‘shishga chaqiradi.

Hozir jamiyatimizning 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil qiladi. Shu bois, kelajagimiz, avvalo, ularning tarbiyasiga bog‘liq. Ya‘ni yoshlar tarbiyasi jamiyat rivojini belgilab beruvchi mustahkam zamin. Uni mustahkamlashda ta‘lim muassasalari, oila va jamiyatning o‘rni katta.

Zamonaviy davrda yoshlarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasiga ta‘sir ko‘rsatishda yangicha yondashuvlar talab etiladi.

Tarbiya jamiyatda insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga

ega bo‘lib, bu orqali yosh avlod ma‘naviy-axloqiy va madaniy qadriyatlarini o‘zlashtirib, ularni kundalik hayotda qo‘llay olsa, ijtimoiy adolat, tinchlik va totuvlikni ta‘minlash imkonini oshadi.

Bugungi globalashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kundalik hayotiga chuqur kirib keldi. Ba‘zi yoshlar internetdagi manbalardan o‘zlariga zararli, jamiyatga yot g‘oyalarni o‘rganmoqda. Bu, o‘z navbatida, boshqa madaniyatlarining milliy qadriyatlarga zarar keltirishi, yoshlarda o‘z qadriyatlariga befarqlik tuyg‘usini paydo qilishi mumkin. Buni ular shaxsiy erkinlik deb tushunar, lekin ba‘zi hollarda erkinlik tushunchasi to‘g‘ri talqin qilinmay, yomon odat va yot g‘oyalarga moyillikka olib kelmoqda.



Yoshlar kelajak bunyodkorlari, har bir jamiyatning iftixori va suyanchig‘idir. Ularga to‘g‘ri tarbiya berish, ma‘naviy, jismoniy va axloqiy jihatdan barkamol etib yetishtirish jamiyat taraqqiyotining mustahkam asosidir. Bu yo‘lida oila, maktab va oliy ta‘lim kabi bo‘g‘inlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila — har bir inson hayotidagi birinchi tarbiya maskanidir. Ota-ona farzandlari uchun ibrat bo‘lishi va to‘g‘ri yo‘lga boshlashi kerak. Ota-bobalarimiz aytganidek, “Ota-ona farzandga tarbiya beradi, farzand ota-onaga shukronalik kerak”. Bolalikdanoq oiladagi muhit yoshlarda mehr-muruvvat, odo, axloq va mas‘uliyat hissini shakllantiradi. Oiladagi yaxshi munosabat va o‘zaro hurmat bolalarning jamiyatdagi munosabatlarini belgilaydi. Shu bois, “Oilaning yuzi — farzandning yuzi”, deb aytilgan.

Oilada farzandlarga milliy qadriyatlar, an‘analarni, mehnatsevarlik va samimiyatni singdirish kerak. Farzandlar ota-ona mehnatini qadrlashni, odamlar bilan munosabatlarini mustahkam qilishni, ularga yordam berishni o‘rganadi. Bu esa ularning kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. “Farzandga berilgan eng yaxshi meros tarbiyadir”.

Maktab — yosh avlodga bilim berish bilan birga — tarbiyasiga ham katta ta‘sir

o‘tkazadigan maskan. “Yoshlikda o‘rgangan bilim — toshga o‘yilgan naqshdir”, degan gap bejiz aytilmagan. Bolalar maktabda nafaqat bilim oladi, balki jamoada yashash va ishlash, mas‘uliyatli bo‘lish va odo, axloq qoidalarini tushunishni o‘rganadi. O‘qituvchilar ular uchun ibrat, ustozlardan olingan nasihatlar va tajribalar ularning hayotiga yo‘l-yo‘riq beradi.

Maktab yoshlarda yangi bilimlardan boxabar bo‘lish, yangi sohalarga qiziqish uyg‘otish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, yoshlar maktabda ko‘plab do‘stlar topib, insonlarga ishonch va yordam berish xususiyatlarini shakllantiradi. Shuning uchun maktab tarbiyasini oila tarbiyasidan keyingi muhim bo‘g‘in sifatida qarash mumkin.

Oliy ta‘lim — yoshlarning barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladigan muhim maskan. Bu yerda yoshlar nafaqat aniq bir yo‘nalish bo‘yicha bilimni chuqurlashtiradi, balki mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, jamoada ishlash, mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradi. Oliy ta‘lim muassasalarida yoshlar uchun fan to‘garaklari, sport klublari va chet tillarni o‘rganish kurslari kabi turli imkoniyatlar yaratiladi, ular o‘zini turli sohalarida sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi.

Oliy ta‘limning yana bir ahamiyatli jihati talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarini singdirishidir. Bu maskanda yoshlarga o‘z madaniyati, tarixi, milliy merosi haqida ta‘lim beriladi. Ustozlar bilan uchrashuvlar, turli ma‘naviy kechalar va anjumanlar yoshlarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini oshiradi.

“Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”. Buyuk ma‘rifatparvar va ta‘lim-tarbiya fidoyisi Abdulla Avloniyning bu so‘zlari o‘z vaqtida naqadar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Binobarin, vatanimiz ravnaqi yo‘lida munosib bilim va tarbiyaga ega, mehnatsevar, o‘z ishini mustaqil bajara oladigan odobli yoshlarni tarbiyalash barchamizning burchimizdir.

IJTIMOIY ADOLATLI JAMIYAT

QIYIN VAZIYATDAGI OILALAR TAQDIRINI
O'ZGARTIRAYOTGAN TIZIMGA NAZARO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGIIJTIMOIY HIMOYA
MILLIY AGENTLIGI

Boshlanishi 1-betda

Mahalla darajasida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimi yaratildi. Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'maklashish, jamiyatga integratsiya qilish, sifatli protez-ortopediya va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash tizimi takomillashtirildi.

Prezidentimiz mustaqilligimizning 34 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagı nutqida bu yo'nalishdagi keng qamrovli islohotlarning o'ziga xos ahamiyati va samarasi haqida to'xtalib, bitta bo'lsa ham qiyin ahvolda tushib qolgan hamyurtimizning taqdiri barchamizni birdek tashvishga solishi, zero, xalqimizning eng katta qudrati — mehr-oqibat, saxovat va birdamlikka ekanini ta'kidladi. Bu so'zlar zamirida xalqimizning insonparvarlik, ezigulikka yo'g'rilgan qadriyatları, mamlakatimizning inson qadriini ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mohiyati o'z aksini topgan.

Shu bois, aholining muhtoj qatlamiga yo'naltirilgan ijtimoiy ko'mak ko'lami tobora kengaymoqda. Bu borada "Hamrohlik dasturi"ga muvofiq, ota-ona mehridan mahrum 11 ming bolaning ta'lim, kasb-hunar, sport tizimiga qamrab olingani muhim natija bo'ldi. Ehtiyojmand oilalarning 2,5

milliondan ziyod a'zosiga 110 turdagi yordam va xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Umuman, bu yilning o'zida yordamga muhtoj aholini ijtimoiy himoya qilishga 19 trillion so'm yo'naltirildi.

Bularning barchasi samara berib, yurtimizda kambag'allik darajasi 6,8 foizga tushdi. Xalqaro tashkilotlar 5-6 yil oldin ushbu raqamni 35 foiz atrofida baholaganini hisobga olsak, qisqa muddatda bu borada qanday katta yo'lni bosib o'tganimiz yaqqol ayon bo'ladi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida bu jabhadagi islohotlar izchil davom etyapti. Bu jarayonda professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi takomillashtirilyapti. Barcha hududda nogironligi bo'lgan bolalar uchun kunduzgi parvarishlash markazlari, o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslar uchun reabilitatsiya xizmatlari yo'lga qo'yilmoqda.

Prezidentimiz Namangan viloyatiga tashrifi asnosida ana shu yo'nalishda aholiga xizmat ko'rsatayotgan muassasalar faoliyati bilan tanishar ekan, yurtimizda hech kim e'tibordan chetda qolmasligi, bunday ijtimoiy loyihalar miqyosi kengaytirilishini ta'kidladi.

Ijtimoiy himoya tizimi mutaxassislari va ekspertlarining ushbu jabhadagi islohotlar mazmuni-mohiyati, qilinayotgan ishlar, ehirilayotgan natijalar va dolzarb vazifalar xususidagi fikrlari bilan qiziqdik.



Inson qadri uchun

KOMPENSATSIYA VA IMTIYOZLAR —
INSONPARVARLIK NAMUNASI

— Insonning farovon va fayzli hayot kechirishi ko'plab omillarga bog'liq. Bu jarayonda, ayniqsa, xonadonimizga yetkazib berilayotgan gaz, elektr energiyasi, suv ta'minoti tizimi muhim. Ushbu vositalarsiz turmush obodligi va xotirjamlik haqida gapirish ham mushkul. Ammo bugungi bozor tamoyillari hayotimizga tobora chuqur kirib kelayotgan zamonda bunday vositalar narxini bir maromda saqlash qiyin. Narxlarning oshishi esa eng avval ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam hayotiga ta'sir o'tkazadi. Shunday vaziyatda bu qatlam manfaatlarini himoya qilish, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash masalasi kun tartibiga ko'tariladi.

soatgacha, tabiiy gaz iste'moli bo'yicha — isitish mavsumida oyiga 250 kub metrgacha, qolgan davrlarda esa 150 kub metrgacha ortiqcha sarflangan qismi uchun davlat tomonidan kompensatsiya to'lanadi.

Tasavvur qiling: mezonlarga to'g'ri keluvchi oila bir oyda 350 kilovatt/soat elektr energiyasi sarfladi. Ushbu sarfning 200 kilovatt/soati uchun oila o'z hisobiga 600 so'mdan pul to'ladi. Lekin 201 kilovattndan 350 kilovattgacha bo'lgan qo'shimcha 150 kilovatt/soatning narxdagi farqi davlat tomonidan qoplab beriladi.

Bu nima degani? Oila o'z iste'moli doirasida erkin foydalanishi mumkin, ammo ortiqcha xarajatning og'ir yukli yelkasiga tushmaydi. Chunki davlat bu yukni o'z zimmasiga olib, oilaning qo'lida qo'shimcha mablag' qolishiga sharoit yaratadi. Bu mablag' bolaning ta'limi, uy sharoitini yaxshilash yoki oilaning biznes tashabbuslarini amalga oshirishga sarflanishi mumkin.

Mazkur imtiyoz kimlar uchun amal qiladi? — Ijtimoiy himoya yagona reyestri axborot tizimi orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi (oilada necha kishi bo'lsa, ularning birgalikdagi oylik daromadi teng taqsimlanganda 669 ming so'mdan kam chiqqan oilalar);

— "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oilalar;

— reyestrlarga kiritilmagan, biroq moddiy ahvoli bo'yicha kam ta'minlangan;

— oiladagi jon boshiga daromadi minimal iste'mol xarajatining 1,5 barobaridan oshmaydigan oilalar.

Demak, kompensatsiya shunchaki hisob-kitob emas, balki oilalar taqdirini o'zgartiruvchi, ularni farovon hayotga yetaklovchi insoniy omilga aylanmoqda.

Joriy yil 1-maydan buyon mamlakatimizda kompensatsiya to'lovi uchun 1,66 milliondan ziyod ariza topshirilgan. Ular zamonaviy axborot tizimi orqali to'liq elektron skoringdan o'tkazildi. Natijada arizalarning 82,1 foizi belgilangan mezonlarga mos deb topildi. Bu ishlar inson omilidan yiroq, shaffof va adolatli raqamli mexanizm asosida amalga oshirilgan.

Mazkur tizim orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj 330,5 mingdan ziyod oila davlat qo'llab-quvvatloviga qamrab olindi. Ularga 13,2 milliard so'm kompensatsiya to'lab berildi.

Braziliyada energetika bozorini erkinlashtirish jarayoni aholining zaif qatlamini ham e'tibordan chetda qoldirmayapti. Mamlakatda kam ta'minlangan oilalar uchun qo'shimcha subsidiya joriy etilishi va natijada 60 milliondan ortiq xonadon qamrab olinishi rejalashtirilmoqda.

Buyuk Britaniyadagi "Great British Insulation Scheme" dasturi doirasida past daromadli oilalarning uyiga qo'shimcha izolyatsiya o'rnatilmoqda. Natijada ularning yillik energiya uchun xarajati o'rtacha 300-400 funtgacha qisqarishiga erishilmoqda.

Bundan tashqari, xorijlik mutaxassislar fikricha, agar kam ta'minlangan oila o'z daromadining 10 foizidan ortig'ini energiya xarajatlari yo'naltirsa, bu holat "energetik kambag'allik" sifatida baholalanadi. Shu jihatdan olganda, yurtimizda joriy etilgan kompensatsiya tizimi aholini bunday xavfdan asrashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. U, avvalo, kam ta'minlangan oilalarning ortiqcha moliyaviy yuk ostida qolishining oldini oladi, hayotiy ehtiyojlari izdan chiqmasligini kafolatlaydi.

Qisqasi, ushbu qaror energetika sohasini zamonaviy bozor qonunlari asosida rivojlantirishga turtki berish barobarida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlashning mutloq yangi tizimini ham shakllantirdi. Kompensatsiya va imtiyozlar mexanizmi har bir xonadon uchun ilojisiz xarajatlarni yengillashtirish bilan birga kelajakdagi rejalarga yo'l ochmoqda.

YORDAMNING
BOSHLANG'ICH NUQTASIFarid NAZAROV,
Ijtimoiy himoya milliy
agentligi mas'ul xodimi:

— Mamlakatimizda ehtiyojmandlar alohida e'tiborga olinib, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu kabi oilalarga mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda ko'maklashilmoqda. Kambag'al xonadonlarga 110 dan ortiq turdagi ijtimoiy xizmat va yordamlar taqdim etiladi. "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritish tartib-taomillari qonunchilik hujjati darajasida belgilanadi. Ularni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual rejalar tasdiqlanib, manzilli xizmat va yordam ko'rsatiladi. Bunday insonlar bandligini chekllovchi omillar bartaraf etilib, daromad topishiga sharoit yaratiladi.

Bu borada "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi yo'lga qo'yilgani muhim qadam bo'ldi. Ushbu dastur doirasida "Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas'uliyat tamoyili" doirasida aholini barqaror daromad bilan ta'minlash, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish va oilalarning imkoniyatini kengaytirish bo'yicha keng qamrovli ishlar bajarilyapti.

Dasturning muhim jihati shundaki, "bir martalik yordam" emas, balki aholini ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishga qaratilgan barqaror mexanizm sifatida ishlatilmoqda. Ya'ni oilalarning ichki salohiyatini rivojlantirish, kambag'allikka ta'sir qilayotgan omillar bilan ishlash holda, oilaning barqaror farovonlikka erishishi bo'yicha ishlar bajarilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad oilaning qayta kambag'allikka tushib qolishi va avlodlarga kambag'allik zanjirini uzishdan iborat. Buning uchun kambag'al oilalar farzandlarini maktabgacha ta'lim, qo'shimcha to'garaklarga jalb qilish choralarini ko'rilmqda.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi boshlangandan buyon mamlakat bo'ylab 1 million 277 ming oilaning holati chuqur o'rganilib, har biringning moddiy ahvoli, turmush sharoiti, ta'lim va sog'liqqa ehtiyoji, shuningdek, psixologik va ijtimoiy holati atroflicha tahlil qilindi. Shu asosda haqiqiy ehtiyojmand va davlatning vaqtinchalik qo'llab-quvvatloviga muhtoj oilalar "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritildi. Dasturning dastlabki yilida 667 ming oila (2,8 million kishi) ushbu reyestrga kiritildi.

Joriy yilning 9 oyida "Kambag'al oilalar reyestri"dagi xonadonlarning o'rtacha jon boshiga daromadi qariyb ikki barobar oshdi. Bundan tashqari, daromadga ega bo'lmagan 72,6 ming oilaning rasmiy daromad manbai yaratildi. Ko'rsatilgan ijtimoiy yordam va xizmatlar natijasida 148 ming oila, ya'ni 581 mingga yaqin kishi kambag'allikdan chiqishga muvaffaq bo'ldi.

Tahlillarga ko'ra, ushbu oilalarning 64 foizi yoki 95 ming xonadon rasmiy daromadini barqaror oshirib, mustaqil iqtisodiy salohiyatga ega bo'ldi. Yana 9000 oila yangi mulkka egalik qilishi bilan moddiy mustaqilligini mustahkamladi. Natijalar dastur kambag'allikdan chiqarishda chinakam ijtimoiy liftga aylanayotganidan dalolat beradi.

Albatta, kambag'allik faqat daromadning yetmasligi emas, balki ko'p o'lchovli xarakterga ega. "Kambag'al oilalar reyestri"ga kirgan oilalar uchun farzandlarini ta'limga jalb qilish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmat va yordamdan foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

Aholi farovonligi o'zgarishi turlicha namoyon bo'lmoqda. Ba'zi oilalar tezroq natijaga erisha, boshqalari ko'proq vaqt va resurs talab etmoqda. Shu sababli 2025-yil 15-maydan boshlab "Kambag'al oilalar reyestri"dagi oilalarni uchta toifaga ajratib, differensial yondashuv joriy etildi.

Ijtimoiy himoya tizimi endi faqat moddiy yordam berish bilan cheklanib qolmayapti, balki ma'naviy-ruhiy muhit, farzandlar tarbiyasi, otanolaming ishgа munosabati, his-tuyg'ulari va psixologik holatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan shu maqsadda "Farovon oila" tashabbusi doirasida oilalarning imkoniyati va salohiyatini namoyon etishga qaratilgan maxsus treninglar yo'lga qo'yildi. Hozirga qadar 2,6 mingdan ortiq oila vakillari ushbu treninglarda faol ishtirok etib, dunyoqarashini farovonlik sari o'zgartirishga erishdi.

Ana shu jihatlarni inobatga olib aytilish mumkin, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi mamlakatimiz ijtimoiy siyosatining yangi bosqichini belgilab berdi. Dasturning asosiy qudrati — barcha davlat idoralari yagona maqsad — inson qadrini oshirishga birlashtirishda. Yil oxirigacha kambag'allikni 6 foizga tushirish rejalashtirilgan. Bu bosqichda kambag'allikdan chiqarishning qolipdagi yechimlari emas, balki har bir hayotiy vaziyatga alohida yondashilib, albatta, ko'zlangan maqsadga yetiladi.

Davlatimiz rahbari Namangan viloyatiga tashrifi chog'ida sohani rivojlantirish bilan bog'liq yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, ijtimoiy himoya milliy agentligiga endi demensiya va parkinson kabi kasalliklar bilan og'rikanlar uchun ham qarab turish xizmatini yo'lga qo'yish topshirildi. Shuningdek, kunduzgi parvarish xizmatlariga qo'shimcha ravishda nogironligi bor bolalarning funksionalligini oshirishga qaratilgan reabilitatsiya va pedagogik xizmatlarni joriy etish muhimligi qayd etildi. Bunday muhim topshiriqlarni o'z vaqtida ro'yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatdan samarali foydalanamiz.

Xurshid ZAFARIY,
Ijtimoiy siyosat laboratoriyasi
direktori:

Zimmasiga ijtimoiy davlat maqomini olgan mamlakatimiz uchun bu, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda bozor mexanizmlariga asoslangan narx va resurs taqsimoti joriy etilayotgan bir paytda ijtimoiy adolat mezonlari ham qat'iy saqlanmoqda. Bozor o'zgarishlaridan ayrim aholi toifalari zarar ko'rmay, aksincha, davlat berayotgan kompensatsiya va imtiyozlar orqali qo'shimcha qo'llab-quvvatlanayapti.

Prezidentimizning shu yil 2-apreldagi "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ayni shu maqsadga yo'naltirilgan. Ushbu qaror asosida yoqilg'i-energetika sohasini rivojlantirishda ikki muhim ustuvor yo'nalish uyg'unlashtirildi. Bir tomondan, tarmoqda bozor mexanizmlarini joriy etish, samaradorlik va raqobatni oshirish



orqali butun iqtisodiyot uchun barqaror manfaatlar ta'minlanmoqda. Ikkinchi tomondan esa bu jarayonda ijtimoiy adolat mezonlari qat'iy saqlanib, aholi, ayniqsa, ehtiyojmand qatlam manfaatları muhofaza etilmoqda.

Qarorga muvofiq, joriy yil 1-maydan 2027-yil 1-aprelga qadar aholining eng ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi instrumentlar amaliyotga kiritiladi. Jumladan, elektr energiyasi iste'moli bo'yicha — oyiga bazaviy me'yordan 150 kilovatt/

— Ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlar inson omiliga alohida e'tibor qaratishga yo'naltirilgan. Bu borada mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlar yo'lga qo'yilgani xalq bilan bevosita muloqotni ta'minlashga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Madinabonu JO'RAYEVA,
Ijtimoiy himoya milliy
agentligi mas'ul xodimi:

Hozir bu yo'nalishda mahallalarda faoliyat yuritayotgan 9000 dan ortiq ijtimoiy xodim aholining ehtiyojlarini o'rganish, muammolarni aniqlash va manzilli yordam ko'rsatish orqali ijtimoiy himoya tizimining asosiy tayanchiga aylanmoqda. Ular jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotga kirishib, davlat xizmati va insonparvarlik missiyasini amalga oshirmoqda.

Bugun ijtimoiy xizmatlar keys menejment yondashuv asosida amalga oshirilayotgani tizimni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Bu har bir fuqaro uchun alohida "ijtimoiy ish" yaratilishi, uning holati har tomonlama baholanishi va turli tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikda integratsiyalashgan xizmatlar ko'rsatilishini anglatadi.

Mahalladagi ijtimoiy xodim bu xizmatlarning barchasini bir nuqta orqali uyg'unlashtiruvchi, murojaatlarni qayd etish, baholash va nazorat qilish bo'yicha mas'ul mutaxassis sifatida ishlatilmoqda. Ularning 65 foizdan ortig'i xotin-qizlar ekani ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlam — bolalar,



nogironligi bo'lgan shaxslar, zo'ravonlik qurbonlari bilan ishlash va qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy xodim bo'lish uchun malaka talablariga javob berish muhim bo'lsa-da, buning o'zi yetarli emas. Bu kasb nafaqat bilim va tajriba, balki insonparvarlik, bag'rikenglik va yuksak mas'uliyat talab qiladi. Zero, hayotda sinovlarga duch kelayotgan insonlarning dardini tinglash, tushunish va muammolariga yechim topish uchun ushbu soha mutaxassislari qat'iyat, sabr-toqat, yordam berishga tayyorlik va ishonchli muomala kabi fazilatlar talab etiladi.

Shu sababli ijtimoiy xodim faqat xizmat ko'rsatuvchi emas, balki insonlarning hayotiga ijobiy o'zgarish kiritib oladigan, muhimi, ularning ishonchini qozona oladigan shaxs bo'lishi lozim. Bu esa sohada ishlashga talabgorlardan o'ziga xos bilim va salohiyat

talab etadi. Bugun ana shunday mas'uliyatli kasbda ishlash ishtiyqidagilar tobora ko'payib borayotgani quvonarli. Hududlarda ijtimoiy ish bo'yicha bo'sh o'rinlarga 100 nafargacha nomzod da'vogarlik qiladi. Bu raqam yoshlarning ijtimoiy adolat, muhtojlarga yordam qo'lini cho'zishga ichki tayyorgarligi va mas'uliyatini yaqqol namoyon etmoqda.

Ijtimoiy xizmatlar orqali jamiyatga manfaat keltirishni o'z oldiga maqsad qilgan yurtdoshlarimiz soni ortib borishi soha kelajagi istiqbolli ekanini anglatadi. Shu bois, ushbu tizimni izchil takomillashtirib borishga e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish ham inobatga olingan.

Xalqaro tajribaga e'tibor qaratsak, Germaniya, Finlyandiya va Kanada kabi

davlatlarda ijtimoiy ish instituti aholi bilan ishlashning asosiy mexanizmlaridan biriga aylangan. O'zbekistonda ham ushbu amaliyot bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Bu kasbda har bir kunda yangi dars, har bir uchrashuvda yangi hayot sabog'i bor. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy xodim o'zi ham doimiy rivojlanishi, bilim va ko'nikmalarni oshirib borishi lozim. Agentligimiz tomonidan bu borada ushbu xodimlarga yordam ko'rsatish maqsadida turli o'quv-uslubiy tadbirlar, tajriba almashish bo'yicha muloqotlar tashkil etilmoqda. Har yili o'tkaziladigan "Eng faol ijtimoiy xodim" ko'rik-tanlovi ham bu borada samara bermqda. Ushbu tadbir orqali ijtimoiy xodimlarning og'ir taqdirilar bilan yuzma-yuz kelgan voqealari omma e'tiboriga taqdim etiladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi keng qamrovli islohotlar, avvalo, inson huquqi va manfaatini himoyalash, qadrini ulug'lashga xizmat qilmoqda. Albatta, bu jabhadagi egzu ishlar bardavom bo'lishi uchun davlat dasturi va boshqa huquqiy hujjatlarida belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa tizimda ishlayotgan har bir mutaxassis, ayniqsa, ijtimoiy xodimlardan ulkan mas'uliyat talab etadi. Zero, ijtimoiy xodimlar o'z faoliyati bilan insonlarni ijtimoiylashtirishga hissa qo'shadi — bola maktabga qatnaydi, ona zo'ravonlikdan qutuladi, o'zgalar ko'magiga muhtojlarning hayotiga mazmun kiradi.

Bu kichik yumushlar ko'makka muhtojlar hayotini tubdan o'zgartirib, jamiyatda o'z o'mini topishiga turtki bo'lmoqda. Aholini ijtimoiy himoyalash, kambag'allikni qisqartirish, xalqimiz uchun munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar izchil davom etar ekan, bu egzu ishlar yurtimizda xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan adolatli va insonparvar siyosat namunasi sifatida tarixda qoladi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Bahor XIDIROVA tayyorladi.



Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bugun dunyoda barqaror va taraqqiy etgan har qaysi davlatga nazar tashlasangiz, ularning yuksalishida o‘z yo‘lini mustaqil belgilay olish muhim o‘rin tutadi. Yaqinda mustaqillik bayramini nishonladik. O‘tgan 34 yillik tarix shunchaki muddat emas, balki millat tafakkurining, jamiyat qadriyatlarining va davlat salohiyatining tubdan o‘zgargan davri bo‘ldi. Bu yillar davomida odamlarning qarashlarida erkinlik bilan bag‘rikenglik uyg‘unlashdi, iqtisodiyotimiz o‘z salohiyatiga tayanib o‘tdi, ijtimoiy barqarorlik esa real hayot manzarasiga aylandi. Har bir inson bu o‘zgarishlarni o‘z hayoti, orzu-maqсадlari va imkoniyatlari orqali his qilishi mumkin.

Erkinlik buyuk ne‘mat, ammo uni saqlash, undan samarali foydalanish va kelgusi avlodlarga yanada mustahkam holda topshirish uchun esa har bir fuqaroning ongli harakati, jamiyatning birlashgan sa‘y-harakatlari talab etiladi.

Aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, iqtisodiy mustaqillik davlat uchun faqat moliyaviy mustaqillik emas, balki iqtisodiyotni hayotning har bir sohasiga samarali integratsiya qilish, xalq farovonligini ta‘minlash va barqaror taraqqiyotga yo‘l ochishdir. Boshqacha aytganda, iqtisodiy mustaqillik — tashqi ta’sirlardan xoli holda ichki imkoniyatlarga suyanib, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqara olish qobiliyatidir.

Bu borada O‘zbekiston so‘nggi yillarda katta yutuqlarga erishdi. Davlat iqtisodiyotida tashqi qaramlik bosqichma-bosqich kamayib, mahalliy ishlab chiqarish hajmi ortmoqda. Eng asosiysi, biz endi xomashyo yetkazib beruvchi emas, balki tayyor mahsulotni eksport qiluvchi davlatga aylanib bormoqdamiz. Bu, shubhasiz, iqtisodiy mustaqillik sari tashlangan dadil qadamlar natijasidir.

Birgina to‘qimachilik sohasini oladigan bo‘lsak, mamlakatimiz iqtisodiyoti bir vaqlar aynan paxta xomashyosiga bog‘liq holda shakllangan edi. Paxta terimi mavsumida maktab o‘qituvchi-o‘quvchilaridan tortib, shifokorlarga ham mehnatga jalb qilinardi. Bu esa jamiyatning fikrlash tarzi, mehnat munosabatlari va iqtisodiy faolligini ma‘lum darajada cheklab qo‘yardi.

Keyingi yillarda bozor mexanizmlari joriy etildi, majburiy mehnatga qarshi qat‘iy kurash boshlandi. Natijada O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatda faqat xomashyo yetkazib beruvchi emas, balki to‘liq qayta ishlab chiqarishga ega bo‘lgan, tayyor mahsulot eksport qiluvchi davlat sifatida tanila boshladi.

To‘qimachilik sanoatida yangi davr

To‘qimachilik sanoati bugungi kunda nafaqat O‘zbekistonning, balki butun dunyo iqtisodiyotida eng muhim va strategik tarmoqlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu sohaning ahamiyati ishlab chiqarish hajmlari bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, millionlab aholiga ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Hozirgi kunda dunyoda millionlab insonlar to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sohasida mehnat qilmoqda. Ko‘plab mamlakatlar, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar eksport tushumlarining katta qismini aynan ushbu tarmoq orqali shakllantirmoqda. Sababi bu sohaning o‘ziga xosligi — uning keng qamrovi, qayta ishlash imkoniyatlari va

yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar yaratish salohiyatida namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimizda to‘qimachilik sohasi milliy sanoat hajmining 14 foizini tashkil qilib, iqtisodiyotga katta hissa qo‘shmoqda. Sohada 500 mingdan ortiq odam mehnat qiladi va oxirgi besh yilda 396 ta yangi korxona faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqarish hajmi 10 milliard dollarga yetdi, bu esa to‘qimachilik sanoatining yuksak salohiyatidan dalolat beradi.

Biroq dunyo bozorida o‘zgarishlar, talab va narxlardagi pasayishlar sohani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun davlat tomonidan tezkor va samarali choralar ko‘rishni talab qilmoqda. Masalan, so‘nggi uch yilda jahonda paxta narxi bir tonna uchun o‘rtacha 3 ming dollardan 1,5 ming dollarga tushgan. Bu esa sohada ishlab chiqaruvchilarning daromadini sezilarli darajada kamaytirdi.

Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 13-avgust kuni to‘qimachilik sohasida eksport imkoniyatlari va zaxiralarni ishga solish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda to‘qimachilik sohasidagi bir qator muammolar o‘rtaga tashlandi. Yurtimizda to‘qimachilik sohasida muammolarni yechish maqsadida bu yil klasterlarning 2022-2023-yillar hosili uchun kreditdan qarzдорligi garov qo‘yish sharti bilan besh yilgacha uzaytirilgan edi. Endi 1-avgustdan garovi tayin klasterlar faqat asosiy qarzni to‘laydi. Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi va banklarga hisoblanadigan foizlar esa asosiy qarz to‘liq qoplanganidan keyin undiriladi. Agar klasterlar ham asosiy qarz, ham foizini o‘z vaqtida to‘lasa, foizning jamg‘armaga ketadigan qismining yarmi tadbirkorga qaytariladi. Shuningdek, klasterlarga 2022-2023-yillar hosili uchun berilgan kredit bo‘yicha 1-avgust holatiga yuzaga kelgan 377 milliard so‘mlik penyadan voz kechiladi. Tijorat kreditidan majburiyati bo‘lgan 144 ta korxonani moliyaviy sog‘lomlashtirishga ko‘maklashiladi.



Ammo sohada ko‘plab korxonalarning tijorat kreditlari bo‘yicha qarzдорligi mavjudligi va xalqaro sertifikatlariga ega bo‘lgan korxonalar faqat 16 foizni tashkil qilishi raqobat muhitida ba’zi chekllovlar yaratayotganini ko‘rsatmoqda.

Xalqaro maydonda O‘zbekistonning to‘qimachilik mahsulotlari uchun imtiyozli eksport shartlari yaratilgan, jumladan, “GSP+” tizimiga qo‘shilgan va Yevropa bozoriga bojsiz eksport qilish imkoniyati berilgan. Lekin brendlar bilan hamkorlik va eksport hajmi bu imkoniyatlarga mos kelmaydi. Shu bois, sohani yanada rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi bozorlarga chiqish uchun davlat darajasida keng ko‘lamli islohotlar va dasturlar amalga oshirilmoqda.

Avvalo, sohada moliyaviy sog‘lomlashtirish va tannarxni kamaytirish muhim masala sifatida belgilandi. Klasterlarning qarzдорliklari borasidagi chora-tadbirlar yanada takomillashtirildi: kreditlar qarzдорliklari garov asosida uzaytirildi, penyalardan voz kechildi, foizlarning bir qismi tadbirkorlarga qaytariladi. Bu tadbirlar tadbirkorlar uchun katta yengillik va rag‘batlantirish bo‘ladi.

Shuningdek, fermerlarga paxta hosilini o‘z vaqtida yig‘ib olish uchun tonnasiga subsidiya berilishi belgilandi. Korxonalarga o‘z mablag‘i hisobidan paxta yetishtirish yoki xarid qilishda xomashyo qiymatining 10 foizi qoplab beriladi. To‘qimachilik zanjiridagi barcha korxonalarga ijtimoiy soliq stavkasi 1 foizga tushirildi, ijtimoiy reyestr bo‘yicha talablar soddalashtirildi.

Endi to‘qimachilik korxonalariga o‘z ehtiyoji uchun o‘rnatilgan quyosh panellarini elektr tarmoqlariga ulashga ruxsat beriladi.

Bu esa energiya xarajatlarini kamaytirishga va ekologik jihatdan toza texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi.

Yangi tashkil etilayotgan Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi to‘qimachilik, charm va ipak sanoatlariga mas‘ul bo‘ladi. Agentlik uchun alohida jamg‘arma tashkil etiladi, bu jamg‘arma orqali davlat ko‘magi va arzon aylanma mablag‘lar taqdim etiladi. Bu tashkilotning asosiy vazifasi tannarxni



kamaytirish, ishlab chiqarishni oshirish, eksportni kengaytirish hamda klasterlar va kichik korxonalarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Korxonalarimizni arzon va sifatli xomashyo bilan ta‘minlash maqsadida 2028-yil 1-yanvargacha aralash mato va gazlamalarni

“O‘zbekistonning AQSHdan paxta import qilish rejasi — mahalliy sanoatni rivojlantirish va xalqaro bozorlarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni yetkazib berishga qaratilgan strategik qadam. Bu mamlakat to‘qimachilik sanoatini yangi bosqichga ko‘tarish, xalqaro brendlar bilan hamkorlikni kengaytirish va eksport hajmini oshirish uchun juda muhim.

ishlab chiqilmoqda, bu biznes jarayonlarini yaxshilashga xizmat qilishi shubhasiz.

Mahsulot sifati va standartlar sohadagi eng muhim omillardan biri ekani belgilab qo‘yildi. Bu maqsadda xalqaro standartlarga mos sertifikatlarni olish uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi. O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalariga yangi texnologiyalar, innovatsiya va yuqori malakali kadrlarni jalb qilish uchun maxsus ko‘mak ko‘rsatiladi.

To‘qimachilik sohasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va xalq farovonligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida mamlakatimizda yaratilgan millionlab ish o‘rinlari, yoshlarning ish bilan ta‘minlanishi va eksport salohiyatining ko‘payishini keltirish mumkin.

Yangi iqtidorlarga to‘la, raqobatbardosh va zamonaviy O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynamoqda va bu yo‘ldagi islohotlar yanada yangi bosqichlarga olib chiqadi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida tez kunlarda to‘qimachilik sohasida “Ishonchli eksportchi” dasturi yo‘lga qo‘yilishi ta’kidlangan edi. Dastur orqali eksportoldi moliyalash tizimi joriy etilib, sohadagi tadbirkorlarga samarali yordam ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu maqsad uchun 200 million dollar mablag‘ ajratilmoqda. Mazkur mablag‘lar faqat to‘qimachilik tarmog‘i uchun emas, balki elektrotexnika, qurilish materiallari, oziq-ovqat, farmatsevtika kabi eksport salohiyatli yuqori, lekin hali to‘liq ishga solinmagan sohalar uchun ham mo‘ljallangan.

Yana bir muhim yangilik — aylanma mablag‘lar uchun 500 million dollar ajratilishi rejalashtirilmoqda. Mablag‘lar asosan yuqori salohiyatli eksport tarmoqlarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish va yangi bozorlarga chiqish yo‘lidagi to‘siqlarni yumshatishga qaratilgan.

Ushbu moliyaviy dasturlar va investitsiyalarning amalga oshirilishi O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi bilan birga ichki va xalqaro bozorlarda ham mamlakat mahsulotlarining obro‘sin yanada mustahkamlaydi.

Davlat dasturlari korxonalarning texnik baza va texnologiyalarni zamonaviylashtirishga, ishchi kuchining malakasini oshirishga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Hamda sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlaydi.

O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati borasidagi yaqinda qabul qilingan ushbu chora-tadbirlar nafaqat sohadagi muammolarni yechish, balki umumiy iqtisodiy rivojlanishga ham katta hissa qo‘shadi. Bu orqali mamlakatimiz o‘zining eksport salohiyatini yanada kengaytirib, xalqaro bozorlarda o‘z o‘mini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, bu dasturlar aholi turmush darajasini oshirish, ish o‘rinlari yaratish va yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishga yo‘naltirilgani bois, ijtimoiy ahamiyati ham juda katta. Tadbirkorlik muhiti yaxshilanib, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi uchun zamin yaratiladi.

O‘zbekiston AQSHdan paxta import qiladi

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati jadal rivojlanib, xalqaro bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilayotgan bir paytda mamlakatning Amerika Qo‘shma Shtatlaridan paxta import qilish rejasi ko‘pchilikning diqqatini tortmoqda. Bu g‘oya avvalgi an‘anaviy xomashyo manbalari — mahalliy paxtaga bo‘lgan ishonch va ustuvorlik bilan birga nima uchun yangi yo‘nalishga o‘tish kerakligini tushunishni talab qiladi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Tashqi savdo departamenti direktori Inomjon Abdurahmonovning ma‘lum qilishicha, AQSHdan paxta xarid qilish rejasi majburiy chora emas, balki O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini jahonning premium bozorlariga



olib chiqishga qaratilgan strategik qadamdir. Bu maqsadga erishish uchun zamonaviy va sifatli xomashyo talab qilinadi va shu jihatdan AQSH paxtasi — dunyoda eng yaxshi sifati va barqarorligi bilan tanilgan manba hisoblanadi.

Keyingi yillarda paxta ipi, trikotaj mato va tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish bir necha barobar ko‘paydi, ichki qayta ishlash darajasi esa 100 foizga yetdi. Oqibatda mamlakatda paxtaning barcha hosillari mahalliy fabrikalarda to‘liq qayta ishlanayapti. Shu bilan birga, mahalliy paxtaning sifati va iqlim sharoitlari har doim ham yuqori premium segment talablariga to‘liq javob bera olmaydi.

Import qilingan paxta esa ichki xomashyoni almashtirish uchun emas, balki xalqaro shartnomalar va buyurtmalar bo‘yicha yuqori talablarga javob berish maqsadida qo‘llaniladi. Bu O‘zbekiston mahsulotlarini “Made with U.S. Cotton” yorlig‘i bilan taqdim etish va xalqaro premium brendlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini oshiradi.

Turkiya, Bangladesh, Vyetnam, Hindiston kabi yetakchi to‘qimachilik mamlakatlari ham o‘z xomashyosini Amerika, Braziliya va Avstraliyadan import qiladi. Bu ularga yuqori standartlarga javob beradigan, sertifikatlangan va kuzatish imkoniyatiga ega mahsulot ishlab chiqarishga sharoit yaratadi. O‘zbekiston ham ana shunday yo‘lni tanlab, o‘z mahsulotlarini xalqaro premium segmentda namoyish etishni maqsad qilmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro moda va brend bozorida “trassabiliti” — ya‘ni mahsulotning paydo bo‘lishidan tortib, sotishgacha bo‘lgan barcha bosqichlari yozib borilishi talab qilinadi. AQSH paxtasi ushbu talablarga javob beradi.

O‘zining yuqori sifati “Strict Middling” turi bilan ajralib turadigan AQSH paxtasi uzun tolali, mustahkam va bir xil rangga ega bo‘lib, Levi’s, Ralph Lauren, Puma, Gap kabi yirik va nufuzli brendlar talablariga to‘liq javob beradi. O‘zbekistonda esa iqlim va texnologik sharoitlar tufayli ushbu navni yetishtirish qiyinligi sababli uni import qilish iqtisodiy jihatdan maqbul yechimga aylandi.

Amerika paxtasi “U.S. Cotton Trust Protocol” standartlari asosida barqarorlik va atrof-muhitga e‘tibor qaratilgan tarzda ishlab chiqariladi. Bu jahon miqyosidagi ekologik va ijtimoiy talablarga mos keladigan mahsulot ishlab chiqarishda muhimdir.

O‘zbekiston paxtani import qilishda moliyaviy jihatdan ham qulay shartlarga ega. AQSHning GSM-102 dasturi orqali paxtani 12-18 oylik kechiktirilgan to‘lov bilan olish imkoniyati mavjud. Bu korxonalarga mahsulotni ishlab chiqarish va eksport qilish uchun zarur xomashyoni olgach, faqat keyinroq to‘lovni amalga oshirish sharoitini yaratadi.

Tadbirkorlarga moliyaviy oqimlarni yaxshiroq boshqarish va samarali ishlash imkonini beradi. Import qilingan paxta faqat yuqori marjali va foydaliligi yuqori bo‘lgan shartnomalarga qo‘llaniladi, ya‘ni bu iqtisodiy jihatdan oqilona qaror hisoblanadi.

Bu paxtani import qilish orqali O‘zbekiston xalqaro bozordagi imijini mustahkamlaydi. AQSH va Yevropa Ittifoqi bozorlarida O‘zbekiston mahsulotlariga ishonch oshadi, yangi investorlar va yirik buyurtmalar jalb qilinadi. Bu to‘qimachilik sanoatini strategik ravishda rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Yuqori sifatli xomashyo bilan ta‘minlangan holda, O‘zbekiston o‘z mahsulotlarini xalqaro brendlar bilan hamkorlikda ishlab chiqarishga moslashtirib, xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlik darajasini oshiradi.

O‘zbekistonning AQSHdan paxta import qilish rejasi — mahalliy sanoatni rivojlantirish va xalqaro bozorlarda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni yetkazib berishga qaratilgan strategik qadam. Bu mamlakat to‘qimachilik sanoatini yangi bosqichga ko‘tarish, xalqaro brendlar bilan hamkorlikni kengaytirish va eksport hajmini oshirish uchun juda muhim.

Mazkur tashabbus nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayni paytda bu qadamga majburiy chora emas, balki kelajak uchun oqilona investitsiya sifatida qarash lozim.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official

Ta’lim odimlari

TOSHKENT TURKIY XALQLARNING YIRIK ANJUMANIGA MEZBONLIK QILADI

Gulchehra RIXSIYEVA,
filologiya fanlari nomzodi, professor

Turkiy davlatlar tashkiloti ta’lim sohasidagi hamkorlikni doimo ustuvor yo’nalish sifatida belgilab keladi. Bu hamkorlik davlatlar o’rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va turkiy xalqlar kelajagini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunga Prezidentimiz Turkiy davlatlar tashkilotining Ozarbayjonda bo’lib o’tgan navbatdagi sammitidagi nutqida ham alohida to’xtalib, ilm-fan va ta’lim sohalarida hamkorlikni yangi bosqichga ko’tarish muhimligini, O’zbekiston 2025-2026-yillarda 100 dan ziyod universitetni o’z ichiga olgan Turkiy universitetlar ittifoqiga raislik qilishini aytdi. Toshkent shahrida kelgusi hafta ittifoq Bosh Assambleyasi yig’ilishi o’tkazilishini ma’lum qildi.



Turkiy davlatlarning umumiy madaniyati, tili va tarixi o’ziga xos. Shu bois, ta’lim sohasida hamkorlikni rivojlantirish, akademik almashinuvni kuchaytirish, talabalar va professor-o’qituvchilar almashinuv dasturlarini yo’lga qo’yish hamda ta’lim standartlarini uyg’unlashtirish orqali umumiy bilim bazasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Turkiy universitetlar ittifoqi 2012-yilda ta’ sis etilgan. Hozirgacha uning 7 ta Bosh Assambleyasi hamda rektorlarning 1 ta maxsus yig’ilishi o’tkazilgan. Ittifoq tarkibidan Qozog’iston, Turkiya, Ozarbayjon, Qirg’iziston, O’zbekiston va Vengriyaning bir qator universitetlari joy olgan. Ular orasida O’zbekistondagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti, Qo’qon davlat universiteti, Toshkent xalqaro universiteti, O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti kabi oliy ta’lim muassasalari bor.

Ittifoqning asosiy yo’nalishlaridan biri Orxun almashinuv dasturidir. Bu tashabbus akademik mobillikni kengaytirish, institutlararo hamkorlikni rivojlantirish va turkiy davlatlar universitetlari o’rtasida aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan.

Dastur 2017-2018-o’quv yilida yo’lga qo’yilgan. Shu yili a’zo universitetlarning xalqaro munosabatlari va siyosatshunoslik yo’nalishidagi 43 talabasi ushbu dasturga qatnashdi. Keyingi yillarda Bolonya, “Erasmus+” dasturi va Yevropa kredit tizimini integratsiya qilish bo’yicha uchrashuvlar o’tkazildi hamda dastur nizomi qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi.

Orxun almashinuv dasturi quyidagi strategik maqsadlarni ko’zlaydi:

- TDTning a’zo universitetlari o’rtasida akademik integratsiya va mobillikni rivojlantirish;
- oliy ta’lim tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- mintaqaviy rivojlanish, ilmiy tadqiqot hamkorligi va innovatsiyalarga ko’maklashish.

Dastur vazifasi strategiyani rejalashtirish, almashinuvni boshqarish, markazlashtirilgan oliy ta’lim bazasini yaratish, hamkorlikni rivojlantirish va muhokamalar olib borishni o’z ichiga oladi. Moliyalashtirish manbalari sifatida a’zo universitetlar to’lovlar va xususiy sektor homiyliklari belgilangan. Mablag’lar mobillik grantlari, qisqa muddatli tashriflar, qo’shma dasturlar, ilmiy tadqiqotlar va kommunikatsiya kompaniyalariga yo’naltiriladi.



TDT nafaqat ta’lim sohasida, balki madaniy merosni asrash va targ’ib qilish bo’yicha ham tashabbuslar ko’rsatmoqda. Shu jumladan, turkiy xalqlar umumiy tarixini o’rganish, yozuv merosini o’quv dasturlariga kiritish masalasi hamda turkiy tillar va dialektlarni chuqur o’rganish, yagona ilmiy tadqiqot bazasini yaratish ishlari olib borilmoqda. Ta’lim sohasidagi faoliyat nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro darajada ham e’tirof etilyapti. Chunki bu yo’nalish yosh avlodni global ilmiy maydonga olib chiqish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Tashkilot ta’lim siyosati faqat zamonaviy bilimlarni emas, balki turkiy xalqlar umumiy qadriyatlarini, tarixiy ildizlari va madaniy merosini yosh avlodga yetkazishni ham ko’zlaydi. Shu sababli ta’lim loyihalarida turkiy tarix, adabiyot va tillar alohida o’rin tutadi.

Ta’lim tizimida turkiy davlatlar ta’lim standartlarini ishlab chiqish akademik mobillik yo’lga qo’yilishiga, raqamli ta’lim, onlayn kurslar va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga imkon beradi hamda bu orqali turkiy dunyo yoshlarini global raqobatga tayyorlaydi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni ro’yobga chiqarish natijasida qo’shma ilmiy markazlar, laboratoriyalar va startaplarni tashkil etishga yo’l ochadi.

Tashkilotning ilmiy tadqiqotlarni qo’llab-quvvatlash, ilmiy anjumanlar


o’tkazish borasidagi faoliyatida O’zbekiston universitetlari bilan hamkorlik alohida o’rin tutadi. 2022-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda Istanbul va Marmara universitetlari bilan hamkorlikda Turkiyada Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asari tadqiqi mavzusida o’tkazilgan ilmiy anjuman, 2024-yilda Samarqand Ipak yo’li va turizm universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bilan hamkorlikda Samarqandda Afrosiyob tarixiga oid ilmiy anjuman, 2025-yil aprel oyida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va Ege universiteti bilan hamkorlikda Temuriylar tarixida til va madaniyat masalalariga oid tashkil etilgan ilmiy anjumanlar buning yaqqol isbotidir.

Kelgusi hafta Turkiy universitetlar ittifoqining poytaxtimizda bo’lib o’tadigan navbatdagi yig’ilishi bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadbir dasturi boy. Xususan, rejaga ko’ra, uning doirasida “Alp Er To’nga (Afrosiyob) avlodlari — Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va islom olami Qoraxoniylar davrida” mavzusida ellar aro ilmiy yig’in o’tkazilishi belgilangan. Mazkur tadbir Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bo’lib o’tadi.

Ushbu ilmiy anjumanni o’tkazishdan maqsad umumiy tarixni anglash, birgalikda baho berish va yoshlarga haqiqiy tarixni yetkazish asosida turkiy xalqlarni yanada yaqinlashtirish, Qoraxoniylar davri umumiy tarixi va madaniy merosini ommalashtirish orqali turkiy davlatlardan sayyohlarni jalb qilish hamda u bilan bog’liq maskanlarni “Tabarruk ziyorat” loyihasiga qo’shish va ularning elektron xaritasini yaratishdir.

Anjumanda TDT rahbariyati, ittifoqqa a’zo universitetlar rahbarlari va 100 dan ortiq olim ishtirok etishi kutilmoqda. Bu kabi ilmiy anjumanlar yoshlar uchun ham yaxshi tajriba platformasi bo’ladi.

Turkiy universitetlar ittifoqi tomonidan tadqiqotchilarga yaratilayotgan imkoniyatlar, albatta, ilmiy va ta’lim dasturlarida ishtirok etish hamda yangi marralarni belgilashda, xalqaro hamkorlikni kengaytirishda qo’l keladi.



Forum

BIR MINTAQA, BIR OVOZ, BIR KUCH

Qoraqalpog’istonda Markaziy Osiyo pedagoglari xalqaro forumi tashkil etildi. U “Markaziy Osiyo pedagoglari — bir mintaqa, bir ovoz, bir kuch” shiori ostida bo’lib o’tdi.

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi 80-yubiley sessiyasidagi nutqida ilgari surilgan tashabbuslar, jumladan, Jahon professional ta’lim sammitini O’zbekistonda o’tkazish taklifi forumning bosh mavzularidan biriga aylandi.

Bu taklif yangi O’zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganini yana bir bor ko’rsatdi. Qolaversa, sammit mamlakatimizga

ishtirok etdi. Seminar yakunida zamonaviy texnologiyalar asosidagi ekota’lim nafaqat bilim berishi, balki bolalarda mas’uliyat, mehr-oqibat va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatlarni shakllantirishda muhim omil bo’lib xizmat qilishi ta’kidlandi.

— Forum doirasida Nukus shahridagi Savskiy muzeyi hamda Berdaq nomidagi Qoraqalpog’ davlat



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O’QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

dunyodagi ilg’or tajribalarni olib kirish, xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash hamda yurtimizdagi ishlohtlar, erishilgan yutuqlarni namoyish etish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo pedagoglari xalqaro forumini ushbu yo’nalishning bir qismi, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Forum avvalida Markaziy Osiyo davlatlari ta’lim sohasi rahbarlari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokchilarga murojaat yo’ladi. Unda forumning ahamiyati, mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishdagi o’rni ta’kidlandi.

Tadbirda Markaziy Osiyo davlatlarining yetakchi pedagoglari, ta’lim sohasi fidoiylari, BMT, qator xalqaro tashkilotlar hamda Kembrij universiteti vakillari ishtirok etdi. Nufuzli mehmonlar yangi O’zbekistonda ta’lim transformatsiyasi va unda xalqaro aloqalarning o’rni haqida fikr bildirdi.

Forum doirasida “Ekologik ta’limda zamonaviy texnologiyalar” mavzusidagi seminar tashkil etildi. Unda ekologik tarbiya jarayoniga interfaol metodlarni joriy etish, raqamli platformalar yordamida bolalarda tabiatga ogli munosabatlarni shakllantirishning samarali yondashuvlari haqida fikr almashildi, — deydi Qozog’istonning Ostona shahridagi 80-maktab-internet biologiya fani o’qituvchisi Ermak Anorqulov. — Ushbu forum orqali ekologik loyihalar bo’yicha tajriba almashdik. Fikr va takliflarimiz bilan o’rtolashdik. Shuningdek, mehmondo’st qoraqalpog’ elining sayyohlik obyektlari, muzeylarini tomosha qildik.

Tadbirda ishtirokchilarga videodarslar, mobil ilovalar va virtual laboratoriyalar asosida ishlab chiqilgan yangi metodik ishlanmalar namoyish etildi. Amaliy qismda pedagoglar ekologik tajribalarni tashkil etish bo’yicha interfaol mashg’ulotlarda

akademik musiqali teatriga sayohat uyushtirildi. Teatr tarixi, sahna ortidagi jarayonlar haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega bo’ldik, — deydi Tojikistonning Dushanbe shahridan tashrif buyurgan Saidfari Saidg’ul’ron.

Ishirokchilar Chimboy tumanida ham bo’lib, qoraqalpog’ xalqining boy milliy an’analari, milliy taomlari hamda hunarmandlik bilan yaqindan tanishdi.

— O’zbek va turkman xalqlarining abadiy do’stligi forumda ham namoyon bo’ldi. Qoraqalpog’istonning diqqatga sazovor joylariga sayohat uyushtirildi, — deydi Turkmanistonning Toshovuz shahridagi 26-maktab o’qituvchisi Allayar Vepayev. — Jumladan, Taxtako’pir tumanidagi Borshitov cho’qqisida tashkil etilgan etnoqishloqda xalqimizning boy madaniy merosi bilan tanishdik.

— Ushbu forum Markaziy Osiyo davlatlari uchun juda muhim tadbir bo’ldi, — deydi qozog’istonlik pedagog Gulnora Muqasheva. — Tadbir doirasida respublikangizning ko’plab joylarida bo’lib, o’lkangizning ajoyib tabiati va mehmondo’st odamlari bilan tanishdim. Bular bizda katta taassurot qoldirdi.

Forumning ikkinchi qismida pedagoglar uchun amaliy o’quv seminarlari tashkil etilib, unda ta’limda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalardan foydalanish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga doir masalalar muhokama qilindi.

Mazkur forum Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasida ta’lim sohasidagi hamkorlik, pedagoglar uchun tajriba almashish platformasini yaratish kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

“InnoWeek–2025”

IJODKORLIK VA KREATIVLIK

INNOVATSION G’OYALAR XALQARO HAFTALIGINING ASOSIY MAZMUNI



Poytaxtimizdagi O’zbekiston xalqaro ko’rgazmalar markazida “InnoWeek–2025” VIII innovatsion g’oyalar xalqaro haftaligi ish boshladi. Mazkur haftalik Prezidentimizning tegishli qarori asosida 8 yildan buyon an’anaviy o’tkazib kelinmoqda. O’tgan yillarda haftalik innovatsion ishlanmalarni namoyish etish bilan cheklanib qolmay, ilg’or texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, xalqaro miqyosda bilim va tajriba almashish hamda strategik hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim platformaga aylandi.

Galdagi haftalikda Xitoy, Malayziya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya, Vengriya, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Hindiston, Eron, Kuveyt, Armaniston, Gruziya, Tojikiston, Qozog’iston, Qirg’iziston kabi 30 ga yaqin davlatdan jami 130 dan ziyod vakil ishtirok etyapti. Mahalliy va xorijiy qatnashchilarning

400 ga yaqin innovatsion loyiha va ishlanmalari 15 ming kvadrat metrdan ortiq maydonda namoyish etilmoqda.

Haftalik doirasida ishtirokchilar uchun ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasidagi bilim va ko’nikmalarni oshirish, shuningdek, xalqaro tajriba almashish imkoniyatini beruvchi 30 dan ortiq ilmiy-amaliy tadbir tashkil etilishi ko’zda tutilgan. Xususan, xalqaro darajadagi 18 ta forum, konferensiya va seminar, shuningdek, mahalliy mutaxassislar ishtirokida 11 ta uchrashuv hamda taqdimot o’tkazilishi rejalashtirilgan. Mazkur tadbirlar innovatsion ekotizim vakillari, olimlar, yosh tadqiqotchilar, startapchilar va sohaga qiziquvchilar uchun dolzarb mavzularni muhokama qilish, eng so’nggi ilmiy yangiliklar bilan tanishish hamda xalqaro ekspertlar bilan bevosita muloqot qilish uchun noyob imkoniyatdir.

— O’tgan yillarda tayyor mahsulotlar keng namoyish etilgan bo’lsa, bu yil ishlanmalarga katta urg’u berildi, — dedi Innovatsion rivojlanish agentligi direktori yordamchisi Firdavs Ne’matova. — Pavilyonlarda biznes vakillari hamda ixtirochilar bilan suhbatlar tashkil etilyapti. Investirlarning har bir yosh tadqiqotchining ishlanmasi bilan tanishishi, shu yerda shartnoma

imzolab, startap loyihalarini qo’llab-quvvatlashi uchun imkoniyat yaratilmoqda.

Bugungi global iqtisodiy o’zgarishlar sharoitida innovatsion mahsulot va xizmatlarni bozorga olib kirish, yangi ixtiro va ishlanmalarni xaridorlarga to’g’ri yetkazish muhim sanaladi.

Bu borada haftalikning dastlabki kunida tashkil etilgan “Innovatsiyalar marketing” mavzusidagi konferensiya muhim ahamiyat kasb etadi. Unda O’zbekiston marketing uyushmasining tajribali ekspertlari ishtirok etdi. Panel sessiyalarda mahsulotlarni samarali reklama qilish va brend



yaratish jarayoniga ta’sir qiladigan asosiy omillar, innovatsion mahsulotlarni bozorga olib kirish jarayonini takomillashtirish va qo’llab-quvvatlash, marketing sohasidagi yangi imkoniyatlar muhokama qilindi.

XXI asrda startaplar iqtisodiy o’sishning muhim drayverlari, yangi texnologiyalar va biznes modellarning asosiy manbaiga aylanmoqda. Ularning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’lim, ilm-fan, biznes va davlat sektori o’rtasidagi mustahkam hamkorliksiz tasavvur etib bo’lmaydi. Shu bois, tadbirkorlik tashabbuslari uchun qulay sharoit yaratish hamda kompleks yondashuv asosida startaplarni qo’llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. “Startaplarni qo’llab-quvvatlash ekotizimini rivojlantirish: muammolar va imkoniyatlar” mavzusidagi sessiya hamda “Venchor fondlar forumi” startap milliy ekotizimini rivojlantirish, ilg’or g’oyalarni iqtisodiyotga integratsiya qilishda katta ahamiyatga ega.

Xalqaro innovatsion g’oyalar haftaligi doirasida ilk marotaba “InnowomenWeek – 2025” — ixtirochi xotin-qizlarning innovatsion haftaligi ham o’tkazilmoqda. Ushbu tadbir innovatsiyalar sohasida ayollarning roli va ulushini yanada oshirish, ilg’or g’oya va loyihalarini keng jamoatchilikka taqdim etishda qo’l keladi.

Bundan tashqari, haftalikda IV O’zbekiston ilm-fan forumi tashkil etilishi nazarda tutilgan. Uning asosiy maqsadi ilmiy-innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish, oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish hamda ushbu yo’nalishdagi ishlohtlar va strategik rejalarni muhokama qilishdan iborat.

Shu bilan birga, haftalik kunlarida 10 ga yaqin davra subhuti, muhokamalar va plenar sessiyalar tashkil etiladi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni



DUNYONING BOSH MINBARIDA
YANGRAYOTGAN OVOZIM

Gavharxon MUQADDASOVA,
“Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak
nishoni sohibi

Olтин kuzning dastlabki oyi — sentabr adog‘ida jahon afkor ommasining nigohi Nyu-Yorkka qaratildi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Boisi, BMT Bosh Assambleyasining yubiley anjumani — 80-sessiyasi munosabati bilan ko‘plab davlat va hukumat rahbarlari, taniqli siyosatchi va ekspertlar to‘plandi.

Biz uchun muhim jihati, ushbu nufuzli tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining olam ahli e‘tiborini tortgan tashabbuslarga boy nutqi bo‘ldi. Unda shiddat bilan o‘zgarayotgan murakkab global vaziyatda BMT faoliyati va kelajagiga yangicha yondashuvlar bilan qarashga chorlov o‘z aksini topgan.

Prezidentimiz hozir dunyoda xalqaro institutlarning o‘rni va roli zaiflashayotgani, qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchayib, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshayotgani, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib borayotganini ta’kidladi. Bularning hammasi muloqo yangi, xavotirli geosiyosiy voqealarni vujudga keltirmoqda.

Davlatimiz rahbarining zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida BMT Xavfsizlik kengashini transformatsiya qilish va tarkibini kengaytirish xususidagi har tomonlama asoslangan istiqbolli taklifini mulohaza chig‘irig‘idan o‘tkazar ekanmiz, bu fikrlar ona tilimizda yangrayotgani, O‘zbekistonning jarangdor ovozi



xolos. Zotan, o‘zbek tili xalqimizning ko‘p asrlik madaniyati, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri mahsulidir. U ajdodlarimizning hayotiy tajribasi, ma’naviy merosi va milliy ongini avloddan avlodga yetkazib kelayotgan bebaho boylik.

O‘zbek tili davlat tili sifatida hayotimizning uzviy bo‘lagidir. Nafaqat rasmiy ish yuritish vositasi, balki jamiyatimizni birlashtiruvchi ma’naviy omil. Xalqaro sammitlar, muzokaralar va matbuot anjumanlarida yangrashni esa o‘zbek tilining nufuzini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda ham ona tilimizga qiziqish ortib, uni o‘rganishga e‘tibor kuchaymoqda. Bu holat tilning faqat mahalliy doiradagina emas, balki xalqaro miqyosda ham o‘ziga xos o‘rin egallayotganidan dalolat beradi.

Globallashtiruv davrida har bir xalq o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash uchun, avvalo, madaniyati, qadriyatlarini va ona tilini asrab-avaylashga alohida

yuritilmoqda. Bu tarixiy yutuq millatning o‘zligini anglashi va davlatchilik salohiyati mustahkamlanishi yo‘lida katta qadamdir.

Soliq qo‘mitasi tomonidan davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan tizimli ishlar qilinmoqda. Bunda asosiy e‘tibor davlat tiliga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalar ijrosiga qaratilyapti. Jumladan, 2021-yil 1-avgustdan boshlab tizimdagi barcha hujjatlar va yozishmalar lotin alifbosida yuritilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihaalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosi yuzasidan soliq xizmati organlarida ishlab chiqiladigan barcha me‘yoriy hujjatlar loyihasi matni lingvistik ekspertizadan o‘tkazilyapti.

Bungacha matnga faqat imlo, ya’ni orfografik nuqtayi nazardan qaralgan bo‘lsa, endi tajribali tilshunosning leksikologik, etimologik, sintaktik, semantik, stilistik va punktuatsion yondashuvi asosida ko‘rib chiqilyapti. Qo‘mitada tayyorlanib, hukumatga kiritiladigan farmon va qarorlar loyihasini ekspertiza qiluvchi mutaxasssining soliq terminologiyasi, shuningdek, kompyuter lingvistikasidan xabardorligi ham jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Davlat tilining qo‘llanish doirasi ilm-fan, tibbiyot, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kabi sohalarida ham tobora kengaymoqda. Bu esa o‘zbek tilining imkoniyatlari keng va uning zamonaviy talablarga javob bera olish qudrati yuqori

O‘zbek tili shunchaki muloqot vositasi emas, balki milliy o‘zlikni belgilaydigan, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlaydigan beqiyos qadriyatdir.



yetti iqlimga o‘zbekcha taralayotgani diqqatimizni tortdi.

Kimdir “Bu birinchisi emas, ilgari ham o‘zbek tilida nutq so‘zlangan”, deb aytishi mumkin. To‘g‘ri, ona tilimiz dunyoning bosh minbarida har safar yangraganida yanada yurakda yangi tuyg‘ular, milliy g‘ururni qayta jo‘sh urdirishini ta’kidlamochimiz,

e‘tibor qaratadi. Milliy tilning mavqeyi mustahkamlash esa milliy o‘zlikni anglash va Vatanga sadoqatni targ‘ib qilishda beqiyos qurol vazifasini bajaradi.

Kechagidek esimdaki. Ilgari hatto oddiy ariza yoki ma’lumotnomani o‘zbek tilida yozish qiyin edi. Bugun esa oliy davlat idoralaridan tortib, mahalliy boshqaruv organlarigacha ona tilimizda ish

ekanini ko‘rsatadi. Biroq hayotda qonun talablari hamisha to‘liq bajarilayotgani yo‘q. Masalan, ko‘plab do‘kon va xizmat ko‘rsatish shoxobchalaridagi nomlar davlat tili me‘yorlariga zid tarzda xorijiy tillarda yozilmoqda. Bu holat qonunchilik talablarini buzish bilan birga milliy tilning obro‘sig‘a ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Aslida, “Davlat tili haqida”gi qonunga ko‘ra lavha, e‘lon va joy nomlari davlat tilida rasmiylashtirilishi shart. Me‘yoriy hujjatlarda ham bu masalaga alohida e‘tibor qaratilgan. Demak, har bir peshlavha yoki reklama nomi lingvistik ekspertizadan o‘tkazilishi zarur.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ham shundan dalolat beradi. Masalan, Fransiya barcha reklama va yo‘lko‘rsatkichlar faqat fransuz tilida yozilishi qonun bilan belgilangan, uni buzganlar esa katta jarimaga tortiladi. Rossiya ham har qanday tashkilot davlat tilida ish yuritishi shart.

O‘zbek tili shunchaki muloqot vositasi emas, balki milliy o‘zlikni belgilaydigan, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlaydigan beqiyos qadriyatdir. Uning mavqeyini mustahkamlash, nufuzini oshirish va kelajak avlodlarga sof holda yetkazish barchamizdan mas’uliyat va tashabbuskorlikni talab qiladi. Zero, milliy tilni qadrlagan xalqning kelajagi ravshan bo‘ladi.

YUZ YOSHDA HAM USTAXONADAN
CHIQMAGAN MO‘YSAFID

“EURONEWS” NIGOHIDAGI VOHANING
O‘ZIGA XOS JIHATLARI NIMADA?

“Euronews” ijodkorlari Surxondaryoning sayyohlik salohiyati haqida qiziqarli ko‘rsatuv tayyorladi. Unda voha tabiati va an‘analarning noyob uyg‘unligini o‘zida aks ettirgan hudud sifatida ko‘rsatildi.



“Euronews” telekanali dunyoning 155 mamlakatida 370 milliondan ortiq auditoriyaga ega. Fransiya 32 yil muqaddam tashkil etilgan telekanal ko‘rsatuvlari o‘n uch tilda olib boriladi. Bu esa uni dunyo bo‘ylab keng ommaga axborot yetkaza oladigan nufuzli xalqaro mediaxoldingga aylantirgan.

Telekanalning “Silk Road Adventures”, ya’ni “Ipak yo‘li sarguzashlari” dasturida eski Termiz, milodning boshlariga tegishli yodgorliklar — Fayoztpe va Qoratpe buddaviylik arxeologik majmualari, fusunkor Boysunning diqqatga sazovor joylari haqida hikoya qilindi.

— Ko‘rsatuvda Surxon vohasining turli davrlarga oid qator tarixiy obidalari, arxeologik yodgorliklar, eko, gastronomik va boshqa sayyohlik obyektlari, bundan tashqari, keyingi yillarda yurtimizda sayyohlarni jalb etishga qaratilgan islohotlar haqida ham so‘z yuritilgan. Taniqli arxeologlar, turizm sohasi mas’ullari so‘zlab bergan ma’lumotlar esa ko‘rsatuv yanada jozibali bo‘lishini ta’minladi, — deydi viloyat Turizm boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Shuhrat Ibragimov.

Unda milliy hunarmandlik, urf-odat va an‘analarga ham keng o‘rin berilgan. Boysun tumanidagi osmono‘par tog‘lar qo‘ynida “Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli san’atkorlari tomonidan milliy qadriyat va urf-odatlarimiz tarannum etilgan sahnalar tomoshabin e‘tiboridan chetda qolmaydi.

— Boysunga kelgan kishi Surxonni bor bo‘yi-basti bilan ko‘radi, — deydi “Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli sozandasi Bo‘riql Jumayev. — Etnografik jamoamiz ajdodlardan meros qolgan kuy-qo‘shiq va raqslarni ijro etib, xalqimiz mehrini qozongan. Jamoamiz repertuaridan suyakli, sopolli hamda oddiy qamishli sozlarda ijro etiladigan kuylar ham keng o‘rin olgan. Masalan, sibzig‘aning ham dardli, ham o‘yniqi jarangi hech kimni befarq qoldirmaydi. Chanqovuz, sibzig‘a kabi milliy cholg‘ularimiz, ayniqsa, xorijliklarda katta qiziqish uyg‘otadi. Jumladan, “Euronews” telekanali ijodkorlariga ajdodlarimiz aql-zakovati bilan yaratilgan bunday nafis musiqiy meros namunalarini namoyish etib faxrlandik.

“Boysun” folklor-etnografik ansamblining Xo‘jaqo‘chqor ota tog‘lari fonida namoyish etilgan konsert dasturi mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, yorqin liboslar, jonli ijrodagi xalq qo‘shiqlari, an‘ana va marosimlar voha madaniyati boyligini ko‘rsatgan.

— Surxondaryo shunchaki boradigan joy emas. Bu his qilish mumkin bo‘lgan tirik hikoya. Bu yerga film olish uchun keldik, lekin biz haqiqiy qalbmni topdik, — deya ko‘rsatuvni yakunlaydi telekanal jurnalisti Akis Tatsis.

Surxondaryo vohasi haqidagi ushbu ko‘rsatuv “Euronews” telekanalida ko‘rsatilishi butun dunyo sayyohlarining vohamizga qiziqishini oshiradi. Ularni turistik imkoniyatimiz bilan yaqindan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega.

Xo‘sh, Surxondaryoda tarix va tabiat manzaralari, urf-odat va an‘analardan tashqari yana nimalarni ko‘rsatish mumkin? Voha hali ochilmagan, o‘rganilmagan qo‘riq yanglig‘ yangidan yangi fusunkor manzaralarini sayyohlarga namoyon etaverishiga shubha yo‘q. Keling, ayrimlarini qalamga olamiz.

Voha noyob madaniy yodgorliklari, tabiiy meros obyektlari, go‘zal tabiat manzaralari, shifobaxsh zirol suvlarga boy hudud. Denov tumanidagi Sina turizm qishlog‘idagi Sumbulazor ziyoratgohi ham barchani o‘ziga maftun etayotgan maskanlardan. Sina qishlog‘i yuqoridan adirlik bo‘ylab pastga enadi. Mahalliy aholining aytishicha, bu yerda tarixi bir necha asrga teng Sumbulazor



ziyoratgohi bor. Agar tabiat qo‘ynida huzur va sukut izlayotgan bo‘lsangiz, Denov tumanidagi Sumbulazor sayohati ajoyib tanlov bo‘ladi.

Boysun tumanidagi Yuqori Machay hududida joylashgan Qirg‘iz yodgorligi ham sayyohlar uchun yangi manzil. Qirg‘iz yodgorligi tabiat manzaralari, buloqlari va mevazor bog‘lari bilan e‘tiborga loyiq. Bu manzil haqida turli rivoyat va afsonalar saqlanib qolgan. Ayrim rivoyatlarda aytilishicha, bu yerda oqila, jasur va erkaklar barobarida el-yurtini himoya qilgan qirg‘ayol yashagan. Ularning jasorati, sabri va fidoyiligi xalq xotirasida abadiy muhrlangan. Shu bois, bu joy Qirg‘iz deb nomlangan. Turizmni rivojlantirish doirasida mazkur yodgorlikni targ‘ib etish, u haqidagi afsonalarni to‘plash va hujjatlashtirish, hududdagi tarixiy meros obyektlarini saqlash muhim vazifalardan biri.

Viloyatdagi etnomadaniy muhit ham sayyohlarni o‘ziga jalb qila oladi. Masalan, Muzrabot tumanidagi Navro‘z mahallasi gilamdo‘z hunarmandlar maskani sanaladi. Ular Surxon vohasiga xos gilam to‘qish sirlarini puxta o‘zlashtirgan. Muhimi, yosh

avlod ham ushbu hunarni o‘rganmoqda. Mahalla ayollari bir-biridan o‘rnak olib, uylarida gilamchilik ustaxonasi ochib, bu sohani kasbga aylantirgan.

Hunarmandlarning ta’kidlashicha, gilam to‘qishda ranglar uyg‘unligi, cho‘p va ip tanlash, naqsh tuzish — bularning barchasi e‘tibor, sabr-bardoshga yo‘g‘rilgan mehnat talab qiladi. Hozir Navro‘z mahallasidagi ayollar to‘qigan gilamlar mahalliy bozorlarda sotilmoqda. Ba’zilari esa chet el ko‘rgazmalariga ham chiqarilyapti.

Gilamdo‘z kayvoni ustalardan biri Davlatoy Normatova asli turkmanistonlik. Mahallaga kelin bo‘lib tushganidan buyon gilam to‘qiydi. Hozir qahramonimiz katta ustaga aylangan. U mahalladagi gilamdo‘zlarga ip yigirib beradi. Bitta gilamga yetadigan ipni yigirish uchun 3 oy vaqt kerak bo‘lar ekan. Uning ta’kidlashicha, urchuqda ip yigirish sevimli mashg‘ulotiga aylangan, shu orqali daromad topadi.

Shuningdek, Davlatoy Normatova quroq bichadi, ko‘rpa va chopon qaviydi. Bu hunarni qizlari, kelinlari va nevaralariga ham o‘rgatadi. Maqsadi — milliy qadriyatlarimiz bardavomligini ta’minlash. Bugungi kunda hunarmand kasbidan hurmat va daromad ko‘rgan ustaga aylangan.

Navro‘z mahallasidagi gilamchilar ko‘chasida yaxshi an‘ana shakllangan. Ya’ni qaysi xonadonda gilam to‘qish boshlansa, ish oxiriga yetmaguncha o‘sha uy kayvoni onaxonlar, yosh kelinlar va qizlar bilan gavjum bo‘ladi. Ha, mahalla ayollari ipdan nafaqat gilam to‘qiydi, balki mehr-oqibat rishtasini ham mustahkamlaydi.

Boysun nainki tabiati go‘zalligi, balki yuzlab hunarmand ustalari bilan ham mashhur. Boysun tumanli Sariosiyo mahallasida yashovchi 103 yoshli Rahmat bobo Esanov shu yoshda ham mohir hunarmand sifatida mehnat qilayotgani alohida mavzu. Bobo temirchilikning nozik va betakror yo‘nalishi — chanqovuz yasash bilan